



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)
—
2023



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati	6
Aziza QODIROVA. Ta'lrim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'nnaviy tafakkurini harakatl o'yinlar orqali rivojlantirish	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosobat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	82
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishslash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiyl o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONNOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishslash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroqli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarning ta'limg-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatl o'yinlardan foydalanish metodikasi	115
Mavjud NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiyl o'yinlar texnologiyasi	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	125

IMOM AT-TERMIZIY SHAXSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA FIKRLARINING QIYOSIY-ANALITIK JIHATLARI

Ta'lim-tarbiya ishlarining rivojlanishi, tarixiy merosimizning ilmiy-nazariy asoslaridan foydalanish yo'llari, ta'lim-tarbiya sohasiga oid o'zaro munosabatlar, ustoz-shogird munosabatlari, ilm izlab, sayohat qilib o'tkazgan at-Termizi, muhaddislik ilmining vakillari orasida yaxshi odobi, axloqi, xulqi bilan ajralib turgan, olimlar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ustozlik qiladi.

Kalit so'zlar: muhaddis, ilm, shaxs, munosabat, ta'lim-tarbiya

Развитием воспитательной работы, способами использования научно-теоретических основ нашего исторического наследия, взаимоотношениями в области образования, отношениями учитель-ученик, ат-Термизи, путешествующий в поисках заний, отличился среди представителей Наука мухаддисов своими хорошими манерами, нравами и поведением выступает, участвует в научных дискуссиях с учеными, наставниками.

Ключевые слова: учитель, наука, личность, отношение, образование.

The development of educational work, ways of using the scientific and theoretical foundations of our historical heritage, relationships in the field of education, teacher-student relationships, at-Termizi, traveling in search of knowledge, distinguished himself among representatives of the Science of Muhaddiths with his good manners, morals and behavior, performs, participates in scientific discussions with scientists, mentors.

Keywords: teacher, science, personality, attitude, education

Mashhur muhaddis olim Abu Iso at-Termiziyning shaxsiy hayoti va barkamol ijodining har tomonlama o'r ganilishi tufayli buyuk bobokalonimizning hozirgi davrimiz uchun ham o'mnak bo'ladijan ko'p ibratomuz hislatlarining guvohi bo'lamiz. Eng avvalo, at-Termiziyning yoshligidan ilm-fanga g'oyatda chanqoqlik va zo'r havas bilan qiziqishi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga ham bardosh berib o'z maqsadi, ya'ni o'z bilimini oshirish yo'lidagi jiddu-jahdi har qanday tahsinga sazovordir. Barcha davr uchun g'oyatda zarur hisoblangan payg'ambar alayhissalom hadisi shariflarini sobitqadamlik bilan yig'ish, ularni tartibga solib el orasida targ'ib qilishdek sharaflı vazifani zo'r ma'suliyat bilan ado etib, bu borada islom dunyosida tan olingan oltita mashhur muhaddislardan biri darajasiga yetish, chuqur bilimi bilan bir qatorda mashaqqatli mehnati har qanday ilm ahli uchun g'oyatda ibratli bir hol ekanligini alohida ta'kidlamoq zarur.

Ma'lumki, o'z bilimini oshirish borasida at-Termiziyo ko'pgana xorijiy mamlakatlarni ziyorat qilgan. Elma-el kezib, cho'lu-biyobonlar osha yo'lda yurib, safarda bo'lganida ham yoki bir joyda muqim turgan paytida ham har bir fursatni g'animat bilib roviylardan eshitgan hadislarni yig'ish bilan shug'ullangan. Ularni tartibli ravishda yozib qayd qilish bilan birga ushbu hadislarning qanchalik

darajada sahiyh yoki zaif, mavzu' ekanligini qayta-qayta tekshirib ilmiy ravishda aniqlagan.

Bu o'rinda at-Termiziyo o'z ustoziga bo'lgan samimiy sadoqati va benihoya chuqur izzat-hurmati ham zo'r tarbiyaviy ahamiyatga molik hollardan hisoblanadi. Bu xususda at-Termiziyning o'z ustoziga va safdoshi al-Buxoriy bilan bo'lgan munosabatlari hozirgi kun uchun ham g'oyatda dolzarb va ahamiyatlidir.

Yoshi qirqdan oshgan va turli mamlakatlar olimlaridan ta'lim olgan at-Termiziyo ham u paytda yetuk olim darajasida tanilgan bo'lgan. Ikkala olim o'rtasida ko'pdan-ko'p samarali ilmiy munozaralar, samimiy do'stona uchrashuvlar bo'lgan. At-Termiziyo o'z asarlari uchun ko'pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan bo'lgan uchrashuvlarda olganligini yozadi. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab unga chuqur hurmat bilan qaragan va: "Men sendan olgan foyda, sen mendan olgan foydadan ko'ra ko'proq", deb unga nisbatan o'z munosabatini samimiy bildirgan.[1, 389]

Abu Iso at-Termiziyo yozib qoldirgan "al-Jome' as-sahiyh", "ash-Shamoil an-nabaviya" kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib insonlarni halol, adolatli, e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-onal, ayollarga

nisbatan hurmatda va e'tiborli bo'lishga chorlaydi.

Bu ibratli pand-nasihatlar va o'gitlar hozirgi jamiyatimiz ahlini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinnlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki, dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo'lgan "al-Jome' as-sahiyh"da tarix, mantiq, huquqshunoslik, tabobat, ziroat va boshqa qator fanlarga oid ko'plab ma'lumotlarni ham uchratamiz.

Kishi qalbida ilohiy muhabbat, ezgulikka, Haq va haqiqatga ishq qancha kuchli bo'lsa, u shuncha so'fiyidir. Boshqacha aytganda, pok ko'ngil bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan, yolg'on va riyoni, zulm va nohaqlikn yomon ko'radigan insonni so'fiy nomi bilan sharaflasa bo'ladi. Zero, tasavvuf asosiy e'tiborni botiniy tozalik, qalb orqali anglangan tavhidiy imon-e'tiqod va ruhiy-ma'naviy kamolotga qaratadi".[2, 4.]

«Imom Termiziy fiqxlar ra'yini, chunonchi Abu Xanifa (imomi A'zam) va shogirdlarining fiqhiy (qonunshunoslik) uslublarini o'rgandiki, ba'zi hadislarni rivoyat qilar ekan, u hadisning qonunshunoslikka qanday taaluqli ekanini ham ko'rsatadi. Imom Termiziy o'zлari fiqhga oid bir kitob yozganlarini aytadilar. Lekin bu kitob bizning zamonomizgacha yetib kelmagan».[3, 8]

Imom at-Termiziy axloqiy muammolarni hal qilish bo'yicha keng yoyilgan an'anaviy, etnik tushunchalarni rivojlantirdi. Uning fikricha, inson o'z hatti - harakatlari va faoliyati bo'yicha erkin bo'lib, uning ijobiy hamda salbiy tomonlari o'sha odamning o'ziga, atrofdagilarga bog'liqidir. Insonning axloqiy qiyofasi ijtimoiy muhit bilan, uning taqdiri va boshqa xususiyatlari o'z e'tiqodi bilan bog'liqidir.

Imom at-Termiziyning bu fikrlari chet davlatlari, xususan Yevropa davlatlaridagi ba'zi ta'limot asoschilarining fikrlaridan ancha ilgariroq aytiganligi o'lkamizda ilm-fan taraqqiyotidan darak beradi.

Tevarak-atrofdagilarning ta'siri ostida bir qancha kishilar yaxshi fazilatlarga ega bo'lsalar, bir qanchalari yomon odatlarga o'rganadilar.

Mutafakkir yetuk inson shakllantirish g'oyasini, ta'lim-tarbiya masalasini insonning yoshlik davridan boshlab qo'lga olish zarurligini, bu uchun tarbiyani bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda olib borishni, ularga yosh davrlariga mos keladigan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish zarur ekanligini ko'p bor mushohada qilgan.

Buning uchun, har bir ota-onha o'z farzandiga yaxshi fazilatlarni egallash kerakligini nasihat qilishi, joni, tani pok bo'lib yashashini, ichki

dunyosini yorug'lik nuri bilan to'ldirishini, o'zini tuta bilishini, gunohlardan yiroq yurishini, qolaversa barcha yomon ishlar Allohga ayon ekanligini yoddan chiqarmaslik kerakdir, deb hisoblaydi imom at-Termiziy.

Imom at-Termiziy o'zining hadislarida kishilarning ijodiy imkoniyatlarini ishga solish, ularning mehnat faoliyatlarini, yuksak fikrlar bilan faoliyat yuritishlarini Alloh tomonidan in'om etilgan yaxshilik va yomonlik tushunchalari bilan bog'laydi.

Olim ta'limoticha, yaxshi va yomon qotib qolgan, o'zgarmas toifalar emas, balki kishilarning o'z tushunchalari - ularning xohish, intilishlari bilan bog'liqidir, degan xulosalar qiladi.

Insonning intilishini u yaxshi deb biladi, yaxshilik va yomonlik tushunchalari insondan tashqarida bo'lishi mumkin emas, ular odamning intilish va hatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi.

Bu intilishlar tarbiya, an'analardan kelib chiqqan holda bir xil bo'lishi mumkin, - deb fikr yuritadi muhaddis.

Inson faoliyati va hatti-harakatlarini Imom at-Termiziy ikki guruhga ajratadi. Odam qiladigan harakat yoki qilmish uning xohishiga va ishonch e'tiqodiga bog'liq bo'lib, foydali bo'lishi va insonga baxt-saodat keltirishi mumkin. Imom at-Termiziy fikricha, inson tanlash qobiliyatiga ega va bu unga yaxshi va yomon to'g'risida fikrlash imkonini beradi.

Bundan tashqari Imom at-Termiziy axloqiy tushunchalarning bir qanchasini izohlaydi, ularni sharhlab aqlililik, donolik va solihlik bilan so'zlash kabi ijobiy fazilatlar haqida to'xtaladi, shuningdek, qalb o'likligi, farqsizlik kabi bir qancha salbiy xususiyatlarni haqida fikr bildirgan.

Imom Termiziyning xususiy fazilatlari haqida fikrlar yozilgan asarlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi xulosalarga keldik:

- birinchidan, Termiziy mulohaza qiladigan, masalani aniq tushuna oladigan, ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, fikrining to'g'riligini tezda payqay oladigan;

- xotirasi kuchli ekanligi, ko'rgan, eshitgan narsalarini yodida yaxshi saqlaydigan;

- zehnining o'tkirligi;

- yetkazmoqchi bo'lgan fikrining va mulohazalarining raxonligi;

- taqvoligi sabab, ovqatlanish, dunyo lazzatlariga qiziqmaganligi;

- adolatni hurmat qilishi, g'ururi va vijdonining sofigi kabi xisatlarni o'zida mujassam etgan inson bo'lgan.

At-Termiziy fikricha, insonning sahovatli va aql-idrokli bo'lishida bilim egallash muhim ahamiyatga ega. Uning ta'kidlashicha, maqsadga

70 ilm orqali erishiladi, shu bilan birlgilikda, odamlarga yaxshilik qilish, ular bilan muloqotda bo'lish kabi xususiyatlar insonning Allohg'a bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'z hadislarida bolalarni tarbiyalash masalasida ota-onalarga ibratlari maslahatlar beradi. Farzandlarni vijdongan mehnat qildirishga, ularga ma'lum bir kasb sirlarini o'rgatishga chaqiradi. Bolalarda insonparvarlik hissini tarbiyalashga oid maslahatlar, nasihatlar beradi.

Odamlarga yaxshilik qilish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, mutafakkir nazarida, inson hayotining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Imom at-Termiziyan tarbiya va ta'lim masalalariga bag'ishlangan maxsus yirik asar yozmagan bo'lsada, uning bu masalalar to'g'risida teran va bebahoi fikrlari hadislarida, asarlarida aks

etgan.

Hadislardan, albatta, turli xil tarbiyaviy uslublarni kuchaytirishda foydalanish tarbiyaviy jarayonning samarasini oshirishi shubhasizdir.

Milliy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy g'oya hamda istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan salbiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik - bu tarbiya sohasidagi asosiy vazifamizdir.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning hayoti hamda uning boy ilmiy, ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. Асқоланий, Ибн Ҳажар. Таҳзийб ат-таҳзийб. Дехли, 1347 ҳ.й.
2. Комилов Н. Маънавий камолот илми // "Ислом нури" газетаси. 2005 йил, 17-18 (299).
3. Термизий, Абу Исо. Саҳиҳи Термизий: Танланган ҳадислар /Араб тилидан тарж. ва сўзбоши А.Абдуллоники: Масъул мухаррир А.М.Мусабек. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1993. – 208 б.
4. Қодиров Қ.Б. Имом Абу Исо Мұхаммад ат-Термизийнинг мұхаддислик фаолияти ва тарбиявий қарашлари: Пед. фан. номз. дисс... Тошкент, 2008. – 141 б.
5. Нишонова С. Шарқ Уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси: Пед. фан. докт. дисс... Тошкент, 1998. – 202 б.
6. Баубекова Г.Д. Образовательно - нравственные взгляды просветителей Средней Азии конца XIX - начала XX веков: Автореф. дисс... докт. пед. наук. Ташкент, 2002. – 34 с.